

## O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING DASTLABKI YILLARI TURK MATBUOTI NIGOHIDA

*Toshev Solejon Ahmatjonovich, ChDPU "Tarix" kafedrasiga katta  
o'qituvchisi*

### THE FIRST YEARS OF UZBEKISTAN'S INDEPENDENCE IN THE EYES OF THE TURKISH PRESS

*Toshev Solejon Ahmatjonovich, Senior Lecturer, Department of  
History, ChDPU*

### ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА ГЛАЗАМИ ТУРЕЦКОЙ ПРЕССЫ

*Тошев Солежон Ахматжанович, старший преподаватель  
кафедры истории ЧГПУ*



[https://orcid.org/0009-  
0004-7224-1628](https://orcid.org/0009-0004-7224-1628)

e-mail:

[toshevsolijon504@gmail.  
com](mailto:toshevsolijon504@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining 1991-yilda mustaqillikka erishganidan keyin Turkiya ommaviy axborot vositalarida qanday aks ettirilgani tahlil qilinadi. Dastlabki yillarda turk matbuoti tomonidan O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti qanday yoritilgani, mamlakatlar o'rtaсидаги tarixiy-madaniy yaqinlik fonida axborot oqimi qanday shakllanganligi o'rGANILADI.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, mustaqillik, Turk matbuoti, Turkiya, ommaviy axborot vositalari, siyosiy imij, xalqaro e'tirof.

**Аннотация:** В статье анализируется, как Республика Узбекистан была представлена в турецких СМИ с момента обретения ею независимости в 1991 году. В ней рассматривается, как турецкая пресса освещала политическую, экономическую и культурную жизнь Узбекистана в первые годы, и как поток информации формировался на фоне исторической и культурной близости между странами.

**Ключевые слова:** Узбекистан, независимость, турецкая пресса, Турция, средства массовой информации, политический имидж, международное признание.

**Abstract:** This article analyzes how the Republic of Uzbekistan was reflected in the Turkish media after it gained independence in 1991. It studies how the political, economic and cultural life of Uzbekistan was covered by the Turkish press in the early years, and how the flow of information was formed against the background of historical and cultural proximity between the countries.

**Keywords:** Uzbekistan, independence, Turkish press, Turkey, media, political image, international recognition.

**KIRISH.** Turkiya va O'zbekiston munosabatlari yuzlab yillik tarixga ega bo'lib, ikki mamlakat o'rtaсидаги ko'p qirrali va chuqur aloqalar asrlar davomida turli daraja va shakllarda davom etib kelmoqda. Turkiya 1991-yil 16-dekabrda O'zbekiston mustaqilligini tan olgan birinchi davlat bo'ldi va 1992-yil 4-martda ikki mamlakat o'rtaсиda diplomatik aloqalar o'rnatildi. Turkiya O'zbekiston bilan har sohada hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi va ikki xalq o'rtaсидаги yaqin aloqalarga tayangan holda munosabatlarni ilgari surishga harakat qildi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan beri o'tgan 34 yil ichida turk-o'zbek munosabatlari ko'tarilish va pasayishlar bilan

kechdi. Bunda asosan O'zbekiston rahbariyatining siyosiy tanlovlari hal qiluvchi omil bo'ldi.

2016-yil noyabr oyida Turkiya Prezidenti Erdo'g'anning O'zbekistonga tashrifи va oradan ko'p o'tmay, 2016-yil dekabr oyida Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston prezidenti etib saylanishi bilan Turkiya-O'zbekiston munosabatlari yangi davrga kirdi va shu kungacha ijobjiy tarzda rivojlanib bormoqda.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

1991–1995-yillar oralig'ida Turkiya matbuotida O'zbekiston haqida safar eslatmalari va maqola turkumlari alohida ajralib turgani ko'rindi. O'nlab yillik aloqlardan so'ng tashqi dunyoga ochilgan

mintaqa davlatlari, jumladan O‘zbekistonni tanish zarurati bu maqolalarning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan. “Osiyo turk respublikalari va Turkiya”, “Xazar dengizidan Issiqko‘lga turk xalqlari”, “Osiyo yarimoyida turk yulduzi”, “Xazardan Tyan-Shangacha yangi shakllanishlar jarayonida Markaziy Osiyo va Kavkaz respublikalari”, “Yangi turk dunyosi va demokratiya”, “Yangi respublikalar va Turkiya” hamda “21-asr bo‘sag‘asida turk respublikalari” kabi sarlavhalar ostida chiqqan maqola turkumlari yangi davrni va respublikalarni tushunishga bo‘lgan intilishni aks ettiradi[1].

Bu maqolalar mualliflari orasida o‘sha davrning taniqli jurnalistlari Mehmet Turgut, Nur Batur, Cengiz Chandar, Bilal N. Shimshir, Fuat Bozkurt, Ardan Zenturk kabi nomlar bilan birga siyosatchi Bülent Ejevitning ishtirok etgani ham diqqatga sazovordir. O‘zbekiston haqidagi gazeta xabarlari, asosan, prezidentlararo yoki yuqori darajadagi siyosiy aloqalar bilan bog‘liq bo‘lgani e’tiborga loyiq. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar va o‘zbek oshxonasi haqida maqola turkumlari ham ko‘p uchraydi. Bular bilan birga, turk matbuotida O‘zbekistonga oid boshqa voqealar yetarlicha yoritilmagan va ko‘p hollarda xalqaro axborot agentliklarining pozitsiyalari asosida yozilganini aytish mumkin.

Ushbu tadqiqot Sovetlardan keyingi Markaziy Osiyonidoktorlik dissertatsiyasi mavzusini sifatida tanlagan muallifning shaxsiy qiziqishi va imkoniyatlari bilan tuzilgan arxivga tayanadi. Yillar davomida chet ellarda xizmat safarları va sayohatlar tufayli ayrim oyalar/yillar hujjatlarida kamchiliklar bo‘lishi tabiiydir.

**MUHOKAMA.** 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqilligini e’lon qildi. Bu nafaqat ichki siyosiy muhitda, balki xalqaro ommada ham katta voqealari bo‘ldi. Ayniqsa, turk dunyosi, jumladan Turkiya, O‘zbekistonning mustaqilligini mamnuniyat bilan qabul qildi. Turkiya Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini eng birinchi tan olgan davlatlardan biri bo‘ldi (1991-yil 16-dekabr). 1992-yil 4-martda ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1992-yil aprel oyida O‘zbekistonda ochilgan xorijiy elchixonalarning birinchisi Turkiya Respublikasini edi. 1993-yil yanvar oyida O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi ochildi[2].

Turk matbuotida mustaqillikning ilk yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy

islohotlar, barqaror ichki siyosiy muhit va zamonaliviy davlat qurilishi borasidagi harakatlar ijobiy ruhda yoritildi. O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy suverenitetni mustahkamlash borasidagi sa’y-harakatlari, ayniqsa, milliy identifikatsiyani tiklash, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish hamda xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashish yo‘lidagi harakatlari, Turkiya matbuoti va siyosiy elitalarida katta qiziqish uyg‘otdi. Mustaqil O‘zbekiston haqidagi maqolalar, xabarlar yetakchi gazeta va jurnallarda keng yoritildi[3]. Shuningdek, o‘tish davridagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tahliliga bag‘ishlangan maqolalar e’lon qilindi.

Jumladan, “Milliyet” gazetasining 1991-yil 28-dekabr sonida Bilal Simşir muallifligida chop etilgan “Amaliy ishga kirishish vaqt keldi” nomli maqolada Turkiyaning yaqinda mustaqillikka erishgan turkiy respublikalari bilan aloqalar o‘rnatish va hamkorlik yo‘lida amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy harakatlar tahlil etiladi. Mazkur maqolada Turkiyaning sovet ittifoqi parchalanishi ortidan mustaqillikka erishgan turkiy respublikalarga nisbatan olib borgan tashqi siyosatining yangi bosqichini tahlil qiladi. Unda “tan olish” va “tanishish” davrining tugagani, endilikda esa “amaliy hamkorlik” davrining boshlangani ta’kidlanadi. Bu yondashuv Turkiyaning mintaqadagi geosiyosiy rolini kuchaytirishga qaratilgan strategik harakatlar kontekstida baholanishi mumkinligi qayd etiladi. 1991-yil davomida Turkiya barcha mustaqil bo‘lgan turkiy respublikalar qatori O‘zbekiston respublikasini rasman tan olgan va diplomatik aloqalar o‘rnatganligi, endilikda esa, siyosiy bayonetlar va diplomatik tashriflardan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, sog‘liqni saqlash, madaniy va ta’lim sohalarida aniq dastur va bitimlarga o‘tish zaruriyati yuzaga kelgani, bu holat Turkiya tashqi siyosatining ko‘p qirrali amaliy model sari yo‘naltirilgani misollar bilan ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola ostida “Shartnomalar” sarlavhasi ostida turli turkiy davlatlar bilan imzolangan bitimlar sanab o‘tilgan. Bu bitimlar Savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv va ilmiy hamkorlik, diplomatik vakolatxonalar ochilishi, tibbiyot va ta’lim sohasidagi protokollar shaklida bo‘lgan. Maqolada ilova qilingan hujjatlarda Turkiyaning diplomatik aloqalarni institutsional darajaga olib chiqish strategiyasi doirasida shakllangani, shuningdek, mintaqaviy

integratsiyaga bo‘lgan e’tiborini ko‘rsatadi[4]. Turkiya tomonidan bunday yondashuv, bir tomondan, postsovets makonida vujudga kelgan yangi mustaqil turkiy respublikalarga strategik va madaniy yaqinlik asosida yaqinlashish istagini bildirsa, ikkinchi tomondan, Turkiyaning mintaqadagi yetakchilik ambitionsalarini ham namoyon etardi. Bu tashrif nafaqat diplomatik darajadagi tashrif sifatida, balki keng geosiyosiy mazmun kasb etgan voqeа bo‘lib, xalqaro maydonda O‘zbekistonning yangidan shakllanayotgan tashqi siyosiy kursining birinchi namoyanlaridan biri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

**NATIJALAR.** “Hurriyat” gazetasidagi 1992-yil 1-aprel sanasida yoyinlangan yana bir xabarda O‘zbekiston iqtisodiy holati tahlil qilinadi. Unda aytishicha, O‘zbekiston SSSR tarkibida qishloq xo‘jaligi sohasida katta ahamiyatga ega bo‘lgan hudud edi. Ayniqsa, paxta ishlab chiqarish bo‘yicha strategik ahamiyatga ega edi. Biroq mustaqillikdan so‘ng bu sohadagi ishlab chiqarish katta qiyinchiliklarga duch keldi. 1992-yilga kelib ham yillar davomida markazlashgan iqtisodiyot ta’sirida bo‘lga mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi hali to‘liq ta’mirlanmagan deb xulosa qilinadi[5].

1989-yilning mayida Farg‘onada o‘zbeklar va mesxeti turklari o‘rtasida dahshatli qirg‘inga aylangan ommaviy to‘qnashuvlar boshlanib ketdi, butun Farg‘ona olov ichida qoldi. Ziddiyat to‘lqini o‘sha kezlar respublika aholisining qariyb yarmi yashayotgan Farg‘ona vodiysini butunlay o‘z domiga olishi mumkin edi. Farg‘ona hodisalari payti 100 dan ziyod kishi qurban bo‘ldi, mingga yaqin inson jarohatlandi[6]. Mazkur muammo Turkiya matbuoti nigohidan chetda qolmadı. Turkiyaning mashhur nashri bo‘lgan “Hurriyat” gazetasida “O‘zbeklar ham sizdan, mesxetilar ham” sarlavhasi ostida maqola e’lon qilindi. Maqolada Sovet Ittifoqi parokandalik davrida (1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshlarida) mesxeti turklarining og‘ir taqdiri, ularning vatansizlik, etnik bosim va siyosiy beqarorlikka duch kelgan holati yoritilgan[7]. Asosiy urg‘u Moskva hukumatining bu masalaga nisbatan munosabati va Turkiyaning ularni himoya qilish istagiga qaratilgan. 1989-yilgi Farg‘ona voqealaridan keyingi vaziyat tasvirlanadi. Bu davrda

O‘zbekistonda yashovchi mesxeti turklari mahalliy aholi bilan mojarolari chuqur ijtimoiy inqiroz natijasi sifatida ko‘rsatiladi. Moskva bu vaziyatda befarq qolgan, Turkiya mesxeti turklarini himoya qilmoqchi bo‘lganida, Sovet hukumati bunga qarshi bo‘lgani alohida ta’kidlanadi. Turkiyaning yordam harakatiga nisbatan Moskvaning pozitsiyasi – “O‘zbeklar ham sizdan, mesxetilar ham sizdan... hammangiz bir xalq bo‘lsangiz, hammasiga siz egalik qilmoqchisizmi?” qabilida javob qaytarilganligini muallif Moskvadagi siyosiy elitani Turkiyaning turkiy xalqlarga bo‘lgan mehribonligi va yaqinligidan xavfsirash, hamda Turkiyaning mintaqadagi ta’sir doirasini kengaytirishidan qo‘rquv natijasi deb izohlaydi.

**XULOSA.** Turkiya hukumati mesxeti turklarining tarixiy yurtlariga qaytishini qo‘llab-quvvatlagan. Ammo muammo shundaki, bu masalada xalqaro bosim, yetarli diplomatik kuch va mustaqil siyosiy qarorlar yetishmaganligi tanqid qilinadi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Fahri SOLAK. Bağımsızlığının 30 yılında türk basinında Özbekistan. Türk Dünyası Belediyeler Birliği (TDBB), Yayın No: 32. İstanbul, 2021.
2. O‘zbekiston – Turkiya: Tarix va islohotlar mushtarakligi. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkiya-tarix-va-islohotlar-mushtarakligi> (2025).
3. Hurriyat gazetasining 1992-yil 14-aprel soni.
4. Milliyet gazetasining 1991-yil 28-dekabr soni.
5. S.Toshev.THE ROLE OF TURKISH SCIENTIFIC AND ANALYTICAL CENTERS IN STUDYING THE HISTORY OF UZBEKISTAN (THE EXAMPLES OF TIKA AND TURKSOY).Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods Volume 2, Issue 6, June, 2024 <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/>
6. Toshev Solejon Ahmatjonovich. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda Turkiya ilmiy markazlari va turk matbuotining o‘rni. TAMADDUN NURI. 2024-yil, 8-son (59). - B. 317-320.
7. Solejon Toshev. STUDY OF THE LATEST HISTORY OF UZBEKISTAN IN TURKEY. Look to the past. 2021, vol. 4, issue 5, pp.57-62.